



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## OLIY TA`LIM TALABALARIGA CHET TILDA KASBIY MULOQOTNI O`RGATISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI.

### MODERN TECHNOLOGIES OF TEACHING PROFESSIONAL COMMUNICATION IN A FOREIGN LANGUAGE TO HIGHER EDUCATION STUDENTS.

**Xursanboyeva Mashxura Vahob qizi**

*Toshkent Xalqaro Vestminister Universiteti ingliz tili o`qituvchisi*

*E-mail: [mashxuraxursanboyeva@gmail.com](mailto:mashxuraxursanboyeva@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Oliy ta`lim talabalarining kasbiy bilim ko`nikmalarini chet tili oqali rivojlantirish usullari va texnologiyalari kabi masalalar ochib berilgan.

**Kalit so`zlar:** texnika va metodika, zamonaviy texnologiyalar, terminologiya, mutaxassislik , kasbiy muloqot.

**Abstract.** This article states the issues on methods and technologies for the development of the professional knowledge skills of the Higher Education students in a foreign language.

**Keywords:** techniques and methods, modern technologies, terminology, speciality, professional communication.

Bugungi jadal rivojlanib ketayotgan dunyoda mavjud hech qanday soha yuqli chet tilisiz, xususan, ingliz tilisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Yagona til orqali ko`pgina millat vakillari har sohada – madaniyat, texnologiya, savdo va tijorat sohalarida birlashadilar. Har qanday davlatning ham dunyo miqiyosida o`rn bo`lishligi aynan manashu til bilan bog`liq. Lekin til orqali sohalarni rivojlantiruvchi shaxslar kim? Shubhasiz ular o`sha millatning yosh va o`smir farzandlari. Misol qilib aytadigan bo`lsak, hozirgi kunda O`zbekiston jahon miqiyosida o`z obro`sni va o`rniga ega. Chuki hukumatimiz yoshlarning kasbiy rivojlanishi uchun til ko`nikmalarini oliy ta`lim muassasalariga asosiy fan sifatida kirirtib qo`ydi. Masalan, transport sohasida o`qiydigan talabalar o`z sohalariga oid termin so`zlarni ingliz tilida o`rganib kelishayapti. Huddi shunday, tibbiyot universitetlarida ham ingliz tili asosiy fan sifatida o`rgatilinadi. Chunki sog`liq uchun zaruriy barcha tibbiyot dorilarining yo`riqnomalari chet tilida yozilgan. Bunday misollarning ohiri yo`q.

Ta`limda ko`plab metodika va yondashuvlar borki, ular turli hil soha vakillariga o`z sohalarini ingliz tili orqali o`rgatishga asoslangan. Bulardan biri fan va tilni integratsiyalashgan holda o`qitish usuli, ya`niki ingliz tilida CLIL ( Content and Language Integrated Learning) deb nomlanadi.

CLIL- bu metod orqali talabalarga o`z yo`nalish va sohalariga oid mavzularni, fanga doir bilim va til ko`nikmalarini chet tilida o`qitish maqsad qilinadi. Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o`qitish (CLIL) usuli hozirgi kunda ta`limning innovatsion yondashuvlaridan biri desak mubolag`a bo`lmaydi. Bu yondashuv orqali nafaqat tilni, balki





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



kasbiy bilim va ko`nikmalarni ham rivojlantirishga erishish mumkin. Yuqorida keltirilgandik, tibbiyot talabalarini ham transport sohasini o`rganuvchi talabalar ham o`z soha terminologiyasini ingliz tilida o`rganishadi.

CLIL metodining asosiy maqsadlaridan biri – til va mazmunni birlashtirish. Talabalar bir vaqtning o`zida fan va chet tilini uzviy ravishda o`rganishadi. Bundan tashqari, amaliyotga yo`naltirilgan ta`lim ham uning bir maqsadi hisoblanadi. Masalan, real hayatda sodir bo`ladigan voqealar, jumladan ilmiy maqola yozish, taqdimot qilish yoki texnik jarayonlarni tushuntirish va texnik yo`riqnomalarni tushunish kabilar. Ushbu metod orqali talabalar xalqaro miqiyosidagi kommunikatsiyaga tayyorlanishadi va kasbiy rivojlanishadi.

Agar talabalar turizm sohasini o`rganishayotgan bo`lishsa, ular ingliz tilida mehmonxona xizmatlari haqidagi ma`lumotlarni o`rganishlari, xorijiy mijozlar uchun professional xat yozish ko`nikmasiga ega bo`lishlari, turizmga oid xalqaro statistika tahlil qilishlari va izlanish olib borishlari mumkin. Bundan tashqari huquqshunoslik sohasini oladigan bo`lsak, “bo`lajak huquqshunoslarning nutq faoliyati nazariyasiga ko`ra, xorijiy til ijtimoiy vaziyat sharoitida muloqotchilarining nutqiy muloqotining mohiyatini ochib berishga ham samarali yordam berdi”. [1]

Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o`qitish va soha vakillarini bilim ko`nikmalarini rivojlantirishda ingliz tilining o`rni haqida ko`plab xorijlik mutaxasislar ilmiy izlanishlar olob borishgan. Xatchinson va Uotersning fikricha “Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o`qitish (ESP) ning aniq bir metodologiyasi mavjud emas, chunki tilshunoslikning ushbu yo`nalishining maqsadi lingvistik xususiyatlarni emas balki o`sha tilning o`zini o`rgatishdir”. [2] Ba`zi insonlar kasbiy muloqotni o`rgatishda faqat grammatikaga asoslangan holda o`rgatish xató deb o`ylashadi. “Ammo grammatik xatolarsiz chet tilida so`zlashish imkonsiz va buni amaliy mashg`ulotlarda hisobga olish zarur.” [3]

Shuni aytib o`tish zarurki, ESP fani orqali CLIL metodini qo`llashda muhim qadamlarni hisobga olish kerak. Birinchi navbatda, talabalar ehtiyojini aniqlash kerak. Chunki, darslar kasbiy yo`nalish vat til ko`nikmalariga uzviy mos bo`lishi kerak. Ular aynan qaysi soha vakili bo`lishadi va qanday terminlar ularning sohalarida keng ishlatilinadi va shu orqali mazmun va tilni moslashtirishga erishish mumkin.

**Xulosa.** Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o`qitishning zaruriy usul va metodlarini yuqoridagi maqolada keltirib o`tdik. Mazmun va integratsiyalashgan holda o`qitishning talabalarga afzallikkleri bir qator. Avvalambor, talabalar tilni tabiiy kontekstsda o`rganishadi. Bu orqali talabalar til orqali kasbiy bilimni olishadi va shu bilan birga amaliyotda va muloqot doirasida qo`llashadi. Bundan tashqari, talabalar tilni oddiy qoidalar orqali emas, balki o`zları qiziqgan va kasbiy kariyelalarida uchraydigan mavzular orqali o`rganadilar. Til orqali kasbiy muloqotni o`rgatish orqali talabalar analitik fikrlash, muloqot ko`nikmalari va o`z sohasiga doir bilim va ko`nikmalarni bir vaqtning o`zida o`rganishadi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshmatov O.Sh. Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda mustaqil ta’lim ko‘nikmasini shakllantirish omillari.//O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 6 (47). — B. 118-130.
2. Hutchinson, T., & Waters, A. English for specific purposes: A learning-centered approach. Cambridge, England: Cambridge University Press. 1987.
3. Doniyorova. G. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023.-576b

